



TAHLIL VA TAQQOS

XALQIMIZ BUGUN FAROVON YASHASHGA HAQLI

Bu yo'lda bor imkoniyatlar ishga solinyapti

XX asr birinchi yarmidan G'arb olimlarining ilmiy tadqiqotlarida turmush darajasini baholashda siyosiy-iqtisodiy qarashlardan iqtisodiy-statistik nuqtayi nazarga siljish kuzatila boshlandi. Bu paytda ular tomonidan asosan ishlovchilarning real turmush darajasi va haqiqiy iste'moli bo'yicha tahliliy ishlar olib borildi.

Davomi 4-betda



2023 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI 9-IYUL

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqola chop etilmoqda.

Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga Saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

OBOD MANZILLAR

AZALIY ORZULARI USHALGAN ODAMLAR

Tog' etagida joylashgan Shahrisabz tumani Hisorak qishlog'i tomon yo'lga chiqdik. Erta tongdan quyosh qizdiradi. Chamasi biror soat yo'l yurib, sekin-asta balandlikka ko'tarilarkanmiz, havo salqinlab borayotganini his qildik. Mashinada tepalikka chiqqach, o'ng tarafda kattagina suv ombori ko'zga tashlanadi. Moviy rangdagi zilol suvda osmonda suzib yurgan oppoq bulutlar aksini bemalol ko'rish mumkin. Mayin shabada ta'sirida jilolanib turgan suv atrofi yanada yoqimli va go'zal. Issiqdan bezor bo'lgan shaharliklarning ko'pchiligi aynan shu hududda hordiq chiqaradi. Tabiat go'zalligidan bahramand bo'layotgan odamlar har bir manzarani suratga olishga oshiqadi.

Davomi 2-betda

MAKTAB YARATGAN san'atkor

yoxud odamiylikda ham ibrat bo'lgan Kamoliddin Rahimov haqida

Shogirdlar kamoli — ustozlar jamoli

Olis va mashaqqatli bekatlarni bosib o'tgan o'zbek qo'shiqchilik san'ati o'z bag'ida qator namoyandalarni kamolga yetkazgani tarixdan yaxshi ma'lum. Qo'shiqchiligimiz solnomasiga razm solsangiz, xayolingizda qanchadan-qancha zakiy so'z, soz va

ovoz zargarlari gavdalanishi aniq. Biroq o'tmishda ular orasida xushovozlari, piri sozlari yulduzdek porlab, xalqona ibora bilan aytganda, "mana-man", deb yaqqol ko'zga tashlanib turadiganlari, taassufki, uncha ko'p emas.

Davomi 6-betda



ISLOHOTLAR — AMALDA

ERTANGI KUN RAVNAQIGA ASOS

Inson umrining ko'rki va mazmuni farzanddir. Jajji va qalbi beg'ubor bolalarni ardoqlash, sog'lom o'stirish, turli xurujlardan asrash, ularga ta'lim-tarbiya berish kattalarning asosiy vazifasi va burchi hisoblanadi.

Bolalik inson umrining eng beg'ubor, orzu-umidlarga to'la jo'shqin va haroratli payti bo'lib, ularning kulgisi, ko'zlaridagi quvonch butun olamni yoritadigandek, go'yo. Zero, dunyoda bola kulgisidan yoqimlir ovoz yo'q. Ular kulgisi baxtning

jarangiga o'xshaydi. "Bolaning begonasi bo'lmaydi", "Bir bolaga yetti mahalla otana" kabi hikmatlar necha asrlardan buyon tildan-tilga, dildan-dilga o'tib, yashab kelayotgani bejiz emas.

Davomi 2-betda

DOLZARB MAVZU

EKOLOGIK MUAMMOLARNING

zamonaaviy choralarari



Shu kunlarda mamlakatimizda kuzatilgan chang bo'ronlari ekologik muammolar yechimi bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zaruriy chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishlarining oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho'llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi global ahamiyatga ega masalalarni hal etish hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Davomi 5-betda

SOG'LOM TURMUSH TARZI

SPORTDA CHINIQQAN AVLOD dori-darmonga muhtoj bo'lmaydi

Sog'lom ota-onadan ham jismonan, ham ruhan sog'lom avlod dunyoga keladi. Shuning uchun yurtimizda onalik va bolalikning huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoyasini ta'minlash, xotin-qizlarning hayot tarzi va moddiy ahvolini yaxshilash, jamiyat hayotining barcha jabhasida ishtirok etishi uchun mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Yoshlarni oila qurishdan oldin majburiy tibbiy-ko'rikdan o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Davomi 5-betda



OBOD MANZILLAR

AZALIY ORZULARI USHALGAN ODAMLAR

Boshlanishi 1-betda

Chindan ham, atrofdagi ajib manzara har qanday kishining havasini keltiradi. Yo'l chetidagi muzdek chashma suvidan qonib ichsangiz, charchoqni bir zunda unutmasiz. Chamasi to'rt soatlardan so'ng soat millari o'n ikkiga yaqinlashganda belgilangan manzilga yetib keldik.

Hali saraton kirmagan bo'lsa-da, shu vaqtda boshqa joyda o'ftobning taftiga turib bo'lmaydi. Ammo biz kelgan hududda quyosh tik ko'tarilgan palla bo'lishiga qaramasdan, ko'pchilik o'z dalasida ketmon urib, ishlayapti. Havo harorati nari borsa, 20-22 daraja issiq. Demak, bu yerda ayni quyosh tik kelgan payti ham og'rinmay ishlash mumkin.

Darhaqiqat, "Hisor" mahalla fuqarolar yig'iniga qarashli bo'lgan ushbu manzilda odamlar dalada, tomorqasida astoydil mehnat qilmoqda. Xususan, o'tgan yili tepalikdagi kattagina yer maydoniga suv chiqarildi, aholining turli ekin parvarishlab, daromad topishi uchun imkon yaratildi.

Bir paytlar bu yerlarda faqatgina lalmi bug'doy yoki arpa ekilar, yog'ingarchilik yaxshi bo'lsagina hosil olish mumkin edi, — deydi Safarali ota G'ulomov. — Shu bois, bu yerga suv chiqarilishini orzu qilib yurardik. Bir necha bor buning uchun harakat ham qilib ko'rdik. Ammo iloji bo'lmagandi. O'tgan yili davlatimiz tomonidan katta yordam qilinib, daryodan suv chiqarilishi tufayli niyatimizga yetdik.

Farzandlarim bilan 50 sotix yer olib, kartoshka ekdik. Dehqonchilik ortidan daromad topyapmiz. Nafaqat biz, balki ko'pgina odamlar ishli, daromadli bo'ldi.

2020-yil noyabr oyida Shahrisabz tumani tog'oldi hududlaridagi Hisorak, Sayyod, Suvtushar, Boshqop, Beshbek, Sarchashma va G'ilon qishloqlari aholisiga dehqonchilik uchun Oqdaryo hududi tepaligidagi 3200 gektar maydonga suv chiqarish taklifi ilgari surildi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay harakat boshlandi.

Yangi loyiha ishlab chiqildi. Davlat budjeti hisobidan 60 milliard mablag' ajratilib, Tamshush daryosidan 12 kilometr masofaga suv quvuri tortish ishlari boshlab yuborildi.

2021-yilda boshlangan ishlar 2022-yil bahoriga kelib, yakuniga yetkazildi. Jami 4 ming gektarga yaqin joyni egallagan tepalikning eng baland joyiga hovuz qilinib, daryo suvi quvur orqali shu joyga tashlanadigan bo'ldi.

Bu biz uchun, qolaversa, yaqin atrofdagi qishloq odamlari uchun quvonchli voqea bo'ldi, — deydi "Hisorak" mahalla fuqarolar yig'inini raisi Sayfulla Norqulov. — Chunki ko'p yillik orzumiz amalga oshdi. Tepalikka suv chiqarilib, odamlarning mehnat qilishiga sharoit yaratildi.

2022-yilning o'zidayoq yer olgan odamlar o'rtacha 20 million so'mdan daromad qildi. Buning ortidan turmush tarzi yaxshilanib, hayotdan mamnun bo'lmoqda. Asosiy, odamlarning bandligi ta'minlandi.

Ushbu hududan yer ajratilishida "Yoshlar daftari" dagilarga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, belgilanganidek har

bir yoshga suvli yerlardan 50 sotixdan ajratilib, o'n yilga shartnoma asosida berildi va sabzavot ekib, o'z dehqon xo'jaliklarini yuritishlari tushuntirildi. Ular bu tashabbusni faol qo'llab-quvvatlashdi.

"Hisorak" mahalla fuqarolar yig'inini yoshlar yetakchisi Sharifjon Fayzullayevning ta'kidlashicha, hozirda ellik ikki nafar yoshga 50 sotixdan yer berilib, ular bu joydan o'tgan yildan foydalanishni boshlagan. Shuningdek, bu yerda qo'shni mahallalardan ham yoshlar o'z tashabbuslari bilan mehnat qilmoqda.

Tamshush daryosiga asosan, yuqoridagi tog' etagidagi chashmalar, qorlardan eriyotgan suvlar quyuladi. Daryo o'zanining bir qismi yirik loyiha asosida tortilgan quvurlarga yo'naltirilib, suv o'z oqimi bo'yicha, hech bir elektr yoki boshqa bir qo'shimcha kuchlarsiz chiqariladi.

Yaqinda hukumatning tegishli qarori asosida "Tamshush suv inshootlaridan foydalanish direksiyasi" MCHJ tashkil etildi.

Asosiy maqsadimiz aholi foydalanayotgan yerlarga suvni o'z

vaqtda yetkazib berishdan iborat, — deydi jamiyat direktori Shodiqul Murodov. — Hozirda birinchi bosqich bo'yicha balandlikka suv chiqarilgan. Keyingi bosqichlarda katta quvurdan borayotgan suv kichik quvurlar orqali yomondagi o'zlashtirilgan yerlarga ham olib o'tiladi. Natijada qo'shimcha 100 gektar yerdan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Yana ikki yuz nafar fuqaro bandligi ta'minlanadi. Yer egalari texnik ko'mak ham beriladi.

Loyiha avvalida Tamshush daryosidan suvni yuqoriga elektr energiyasi yordamida olib chiqish mo'ljallangandi. Ammo keyinchalik ushbu loyihadan voz kechilib, suvni o'z oqimi orqali chiqarishga kelishildi. Natijada kattagina mablag' tejaldi. Misol uchun, 300 metr balandlikka suv yetkazish uchun zamonaviy suv nasoslari orqali ikki yoki uch marta ko'tarmada suv chiqarilganda kamida to'rtta nasos kerak bo'lardi. Nasoslar sotib olish uchun esa taxminan 75 milliard so'mdan ortiq mablag' zarur bo'ladi. Bundan tashqari, ularga ishlatiladigan elektr energiyasi uchun bir yilda o'rtacha 21 milliard so'mdan ko'proq pul sarflanardi. Elektr kabellari, transformatorlari hisobga olsak, xarajatlar yanada ortardi. O'zgina izlanish va ma'qul yechim tufayli loyihaga 60 milliard so'mlik mablag' yo'naltirildi. Qolaversa, shu paytgacha deyarli foydalanilmagan 202 gektar yerdan o'tgan yili dehqon xo'jaligi, klaster va fermerlar tomonidan kartoshka ekilib, birinchi yilning o'zidayoq jami 2 ming 931 tonna hosil terib olindi.

Joriy yilda esa yana qo'shimcha ming gektar yer o'zlashtirilib, ikki mingdan ortiq fuqaroga auktsion savdosida orqali jaraga berildi. Shu bilan birga, kelgusida yana 2 ming 300 gektar yerga suv quvurlari o'tkazilib, o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. Pirovardida, jami 4 ming 600 nafar tog'li hudud aholisi bandligi ta'minlanib, ichki bozorga kartoshka yetkazib beriladi.

Mutaxassislar fikricha, ushbu maydonlar o'zlashtirilgach, bir yilda o'rtacha ellik ming tonna kartoshka olish mumkin ekan. Eng asosiysi, bu orqali shu manzildagi odamlar daromadli bo'lishiga sharoit yaratiladi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



ISLOHOTLAR — AMALDA

ERTANGI KUN RAVNAQIGA ASOS



Odinaxon OTAXONOVA, Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda bolalarga bo'lgan e'tibor ham, munosabat ham o'zgacha. Ularni sog'lomlashtirish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga doir muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning barobarida, bolalarning maroqli hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turli ko'ngilochar tadbirlar muntazam tashkil etilyapti.

Xususan, Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish

yurtimizning barcha go'shalarida ta'mirlab ahvolga kelib qolgan ko'plab bog'chalar rekonstruksiya qilindi va to'liq jihozlandi. Yangi bog'chalar qad rostlandi.

2017-yilda yurtimizda 5211 bog'cha faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilda ular soni 29 mingdan oshdi. Shundan 13 mingdan ortig'ini nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etadi. Bu sa'y-harakatlar orqali yurtimizda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 72 foizga yetdi.

Kelgusida bu boradagi ishlar ko'lami yanada kengayishiga aminmiz. Nega desangiz, 2030-yilga qadar yurtimizda qo'shimcha 2 mingta bog'cha qurish maqsad qilingan. Eng muhimi, ehtiyojmand oilalar farzandlari uchun bog'cha, shu jumladan, xususiy bog'cha xarajatlari davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etildi.

Bolalarni erta yoshdan zamonaviy axborot texnologiyalariga o'rgatish maqsadida har bir bog'chani kompyuter sinfi bilan ta'minlash borasida ham samarali ishlar amalga oshiriladi. Bog'cha va maktablarni filtrlangan ichimlik suv hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Yurtimizda bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni doimo qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Sababi, bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz vorislaridir. Bugun ularning yetuk inson bo'lib yetishishi uchun zarur



masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzilib, sohadagi boshqaruv yagona tizim asosida yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, bolalarni jismonan va ma'nan barkamol avlod etib tarbiyalash borasidagi islohotlar hayotimizning boshqa sohalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bolalar manfaatini himoya qilish, ularning orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish, yosh avlodni jismonan va ma'nan sog'lom qilib voyaga yetkazish, farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada ulkan ishlar qilindi.

Bolaga yoshligidan oilada va jamiyatda risoladagidek tarbiya berilmasa, ulg'aygach, to'g'ri yo'lga solish qiyin bo'ladi. Demak, ularga g'amxo'rlik qilish, doimo qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoyalash, rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish erdagi kunga qo'yilgan mustahkam poydevordir.

So'nggi yillarda bolalar haq-huquqini himoyalashga doir qator qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, tub islohotlar amalga oshirildi. Hozir nafaqat poytaxtimiz, balki yurtimizning qaysi bir go'shasiga bormang, bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, katta e'tiborning guvohi bo'lasiz. Farzandlar ko'zidagi quvonchni ko'rib, qalbingiz faxr va g'ururga to'ladi. Bolalar oromgohlari faoliyatini yagona tizim asosida yo'lga qo'yish, ularning moliyaviy holatini yaxshilash va bu kabi dam olish maskanlariga yoshlarni jalb etish qamrovini kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ayniqsa, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishga katta e'tibor qaratilib,

chora-tadbirlarni ko'rsak, ertaga bu albatta, o'z natijasini berishi aniq.

"Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Prezident farmoni o'z vaqtida qabul qilingani bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatning mazmun-mohiyati va ahamiyati nimalardan iborat, unda qanday yangiliklar, imtiyozlar o'z ifodasini topgan?

Agar hujjatning ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, farmon bilan Soliq kodeksiga muvofiq sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, shuningdek, budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan jismoniy tarbiya va sportga doir xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalarga qo'shilgan qiymat solig'i solinmasligi belgilanmoqda. Shuningdek, sport va jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish majmualari, o'quv-mashq bazalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari egallagan yerlar yer solig'idan ozod etildi. Qolaversa, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatini amalga oshirish doirasida foydalaniladigan obyektlar mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

Bu e'zgu ishlarining zamirida ertamiz davomchilari bo'lgan barcha yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ilmiy qilish, dunyodagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan avlodni voyaga yetkazish uchun mustahkam poydevor qo'yish maqsadi mujassam.

MAHALLAM — FAXRIM MENING

VATAN TAQDIRIGA DAXLDORLIK odamlar qalbiga chuqur o'rnashmoqda

Mamlakatimizda "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlari doirasida boshlangan yurt obodligi, xalq farofonligi yo'lidagi harakatlar, xususan, joylarda ichki yo'llar, ichimlik suv, elektr energiyasi va gaz ta'minotini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma obyektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish borasidagi ishlar yangi bosqichga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida har bir tumanda "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, aholi muammolari xonadonbay va mahallabay o'rganib chiqildi va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rilmoqda.

Bu xayrli ishlardan Armasoy tumanidagi Baxtli mahallasi ahli ham chetda qolgan yo'q. Mahalladagi o'z muddatini o'tagan 200 dan ziyod simyog'och temir-beton ustunlarga almashtirildi, eskirgan transformatorlar o'rni yangilari o'rnatildi.

O'tgan asrda qurilgan va yaroqsiz ahvolga kelib qolgan ko'priklar rekonstruksiya qilingani aholining uzog'ini

yaqin qildi. Mahallada tibbiyot punkti qurilib foydalanishga topshirildi. Joriy yilda barcha qulayliklarga ega mahalla binosi ham qurib bitkazildi.

Mahallada infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ishlar davom etmoqda, — deydi "Baxtli" mahalla fuqarolar yig'inini raisi Ahmad Mahmudov. — Ichki yo'llarning 3,6 kilometriga asfalt, 600 metriga shag'al yotqizish loyihasi tayyor bo'ldi, bugun-ertaga ishlar boshlab yuborildi.

Ha, qayerda birlik, hamjihatlik bo'lsa, ishlar maromida davom etaveradi. Baxtli mahallasida kechani kecha, kunduzni kunduz demay harakat qilayotgan ajoyib "beshlik" aholi turmush darajasini ko'tarish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari yaratish

yo'lida izlanmoqda. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va profilaktika inspektorining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijasida ishsizlar soni tobora kamaymoqda.

Mahallaning 513 ta xonadonidagi muammolar o'rganib chiqilganda 75 nafar fuqaro ishsiz ekan aniqlangan edi.

Tadbirkorlik subyektlari tashkil etish hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish uchun shu yilning birinchi choragida 358 million so'mlik imtiyozli kredit ajratildi. Mahallada qishloq xo'jaligi tarmoqlari, Armasoy — Aydar suv havzasi yo'qalarida turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohalari ko'paytirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Joriy yil boshida har bir xonadonni qayta o'rganib chiqdik. 37 nafar kishi ishsizligini aniqlab, ularga tadbirkorlik bilan shug'ullanish taklifini berdik. Asalarichilik bilan shug'ullanishni xohlagan mahalladoshimizga 21 million so'm imtiyozli kredit olishga ko'maklashdik, natijada ikki nafar fuqaro ish bilan ta'minlandi. Mahallamizda mebel ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ustachilikdan xabari bor fuqaroga 33 million so'm kredit olishga yordam qilgan edik, "Armasoy land servis" MCHJ tashkil etdi va qo'shimcha ikkita ish o'rni yaratdi, — deydi mahalladagi hokim yordamchisi Zokir Zulfiqorov.

Baxtli mahallasida amalga oshirilayotgan bunday xayrli ishlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Eng muhimi, tumanda yangi soha bo'lgan turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mahallaning Armasoy — Aydar ko'liga yaqin joylashgan xonadonlarida sayyohlarga xizmat ko'rsatish tizimi

yaratilmoqda. Ayni paytda hokim yordamchisining tavsiyasiga asosan, Barno Narzullayevaga 33 million so'm imtiyozli kredit ajratildi. Kredit hisobidan 10 o'ringa mo'ljallangan uy mehmonxona qurib bitkazildi. Ikrom Suvonqulov ham o'z mablag'i hisobidan uy mehmonxona qurib, uchta ish o'rni yaratdi.

Hozirgi paytda mahalla faollari 11 nafar fuqaroni ish bilan ta'minlash choralarini ko'rmoqda.

Biz mahallamizni ishsizlikdan xoli hududga aylantirmoqchimiz, — deydi Ahmad Mahmudov. — Shunda xonadonlardagi uncha-muncha muammolar ham barham topadi, hududimizda kambag'al qolmaydi.

"Izlagan imkon topadi", degan gap bejiz aytilmagan. Baxtli mahallasi faollari "Ayollar daftari" ro'yatida turgan yetti nafar ayolga 10 million so'mdan subsidiya ajratib berdi. Ushbu mablag'ga tikish mashinasi sotib olindi, shuning hisobidan mahallada chevarlar safi ham ortib bormoqda. Bir nafar ayolga tomorqasida issiqxona qurish uchun imtiyozli kredit ajratildi.

Mahallada avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha "Sifatli AQXKSH" MCHJ tashkil qilinib, 2 nafar fuqaroning bandligi taminlandi. Xizmat turlarini ko'paytirish maqsadida to'rt kishiga ikkita yuk mototsikli, ikkita motokultivator, uch nafar fuqaroga esa 12 boshdan qo'y-echki sotib olish uchun kredit ajratildi.

"Baxtli"liklar baxti, farofonligi, mahallasining obodligi uchun o'zlari harakat qilishi lozimligini yaxshi tushunadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahallalarni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan hujjatlar asosida qishloq va mahallalar ko'rinishi, odamlar dunyoqarashi butunlay o'zgardi. Mahallaga keng qamrovli yondashuv dunyoda o'xshashi yo'q, noyob va yangi tizimni yaratdi. Endi odamlar "Mening mahallam", "Mening ko'cham", "Mening xonadonim" deyishni o'rgandi. Vatan taqdiriga daxldorlik ular qalbiga chuqur o'rnamdi. Zero, mahallasi obod bo'lgan insonning ma'naviyati ham yuksak bo'ladi. Ana shunday keng tushunchali insonlar safida Armasoy tumanidagi Baxtli mahallasining baxtli insonlari ham bor.

Asad MUSTAFOYEV, jurnalist



ENG MUHIM VA OQILONA YECHIM – TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Mintaqadagi ekologik vaziyatni har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yaqin kelajakda turli ekologik xatarlarga duch kelinishining oldini olish va munosib himoyalash uchun dunyo aholisi birgalikda hamjihat harakat qilmoqchi. Bunda har bir davlat ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida, avvalo, o'zining strategik faoliyatini belgilab olib, izchil amalga oshirishga kirishishi muhim ahamiyatga ega.



O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholi uchun qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish yo'nalishida muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Nomzod tomonidan taklif etilayotgan aniq yo'nalishlar bugungi ekologik vaziyat hamda global miqyosdagi atrof-muhit muammolari yechimi nuqtayi nazaridan konstruktiv yechimlarni ifodalaydi. Mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning qulay atrof-muhit sharoitida yashash huquqini ta'minlash uchun davlat tomonidan qo'yilishi kerak bo'lgan aniq qadamlarni ko'zda tutadi.

Qulay yashash uchun qulay atrof-muhit zarur

Millat genofondining toza va sog'lom bo'lishi, sog'lom ona va sog'lom bola tamoyiliga erishish, xavfli ekologik ta'sirlar oqibatida yuzaga keladigan xastaliklarning oldini olish, qisqacha aytganda, sog'lom va farovon kelajak orzusi ham bevosita barqaror ekologik vaziyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu ma'noda, Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturida qishloq xo'jaligida turli zararli kimyoviy tarkiblardan xoli bo'lgan tabiiy toza mahsulotlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Albatta, shu maqsadda suv, tuproq va o'simlik dunyosi uchun xavfsiz tabiiy himoya vositalaridan foydalanish g'oyasi ilgari surilyapti.

Qishloq xo'jaligidagi maishiy ekinlarni zararkundalardan asrash maqsadida foydalaniladigan zaharli kimyoviy vositalar borliqqa kompleks zarar keltirishi ilmiy jihatdan o'z isbotini topgan, tajribadan o'tgan hodisadir. Ilmiy kuzatishlar shundan dalolat beradiki, gen modifikatsiya qilingan mahsulotlar, zararli kimyoviy vositalar aholining sog'lom ovqatlanish tarziga mutlaqo teskari holatdir.

Shuning uchun ham O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev tabiatshunos, botanik va biolog olimlar korpusini shakllantirgan holda, aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlashda birinchi navbatda tabiiy toza mahsulotlar bilan oziqlanish dasturi hayotga joriy etilishi tarafdoridir.

Hozirgi vaqtda maishiy chiqindilarning qariyb 15-20 foizi, katta shaharlarda esa 30-35 foizgacha qismi — oziq-ovqat mahsulotlariga qadoqlanishi oqibatida yuzaga kelayotgan chiqindilarning hisobiga to'g'ri kelishi ham masalaning naqadar jiddiyligidan dalolatdir. Deyarli 90 foiz qismi plastmassa yoki polietilen mahsulotlar bo'lgan bunday chiqindilarning tabiiy chirish ehtimoli juda kam va uzoq vaqt talab qiladi. Bunday chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash borasida esa qamrovli tizim to'la yaratilganicha yo'q.

Chiqindilar xavfsiz qayta ishlanadi

Nomzodning Saylovoldi dasturiy maqsadlaridan biri — sanoat korxonalarini chiqindilari va qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash orqali atrof-muhit muhosafoligini ta'minlash hisoblanadi. Buning naqadar dolzarb ekanini quyidagi raqamlarda ham yaqqol ko'rinadi: mamlakatimizda sanoat korxonalarida yiliga o'rtacha 115-120 million tonna sanoat chiqindilari hosil bo'lmoqda va hozirgi vaqtda poligonlarda 3,5 milliard tonnaga yaqin ayni shu turdagi chiqindilar yig'ilib qolgan.

Saylovoldi dasturida mazkur o'tkir ekologik muammoga yechim sifatida

bunday turdagi chiqindilarni xavfsiz olib chiqib ketish bo'yicha texnik vositalar bilan jihozlash talablarini kuchaytirish taklif etilmoqda.

Chiqindilar bilan bog'liq muammoni yechishning xorijda sinalgan usul va mexanizmlari bor. Asosiysi — chiqindini qayta ishlash. Bu esa chiqindini saralash masalasiga borib taqaladi.

So'nggi yillarda sohani tartibga solishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida chiqindi tashlanadigan joylar ancha tartibga solindi. Lekin hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'p. Misol uchun, Yevropada bu masala bilan o'tgan asrning 80-yillaridan jiddiy shug'ullanishga kirishilgan. Germaniya bugun maishiy chiqindilarning 70 foizini qayta ishlaydi. Yaponiyada esa bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil qiladi.

Bu davlatlarda ikkilamchi qayta ishlash sanoati o'nlab milliard dollar moliya vositalari aylanmasiga ega bo'lgan katta biznesga aylanib ulgurgan. Xitoy importida chetdan keltirilayotgan chiqindi hajmi oshib borayotgani ham shundan.

Saylovoldi dasturida chiqindilar bilan bog'liq yana bir muammoga yechim taklif etilyapti. Unga ko'ra, mamlakatda polietilen, poliamid tarkibli qadoqlash mahsulotlari, bir martalik ishlatiladigan plastik va boshqa idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechishga o'tiladi.

Xavfli chiqindilar, tibbiyot va biologik hamda qurilish chiqindilarini boshqarish va qayta ishlashni tartibga soluvchi hamda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi qadoqlash materiallari va tovarlarga ekologik yig'imning huquqiy mexanizmlarini belgilab beruvchi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilinadi. Shu bilan birga, yurtimizda ishlab chiqariladigan ayrim tovarlar va qadoqlash vositalariga ekologik yig'im joriy etish yuzasidan tegishli me'yorlari hujjatlarini kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida oldimizga qo'yimoqda.

Aholining yildan-yilga ko'payib borayotgani, yangi sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilayotgani, turar joylar kengayayotgani suvga

Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturida tabiatning bebaho ne'mati bo'lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholining toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash hamda bu boradagi mavjud muammolar yechimi yuzasidan ham aniq takliflar ilgari surilmoqda.

Aholining yildan-yilga ko'payib borayotgani, yangi sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilayotgani, turar joylar kengayayotgani suvga

Tabiatimiz biologik xilma-xilligi boy bo'lib, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining 27 mingdan ortiq turini o'z ichiga oladi. Ular orasida umurtqasiz hayvonlarning 14 ming 900 turi, umurtqali hayvonlarning esa 715 turi uchraydi. Shuningdek, 11 ming turdagi o'simliklar, qo'ziqorinlar, suv o'tlari bor. Bundan tashqari, yuqori yovvoyi o'simliklarning 4300 turi bo'lib, ulardan 8 foizi endemik turlardir.

Bugun ayrim noyob turlar va ekologik tizimlar yo'q bo'lib ketish xavfi ostida. Jumladan, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar va hayvonot dunyosi obyektlarining yashash muhitiga antropogen ta'sir natijasida u yerdagi o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari turi qisqarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga hayvonot dunyosining 206 va o'simlik olamining 314 turi kiritilgan.

Nomzodning Saylovoldi dasturida bu kabi muammolarni bartaraf etish yo'llari taklif etilmoqda. Dasturga ko'ra, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yer uchastkalari va suvli akvatoriyasida ularning maqsadli vazifalariga zid bo'lgan har qanday faoliyatga chek qo'yiladi. Kamyob va keskin kamayish xavfi ostida turgan hayvonlarni ovlash va o'simlik turlarini tabiatdan ajratib olishga 10 yillik moratoriy e'lon qilinadi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o'simlik va hayvonot olami haqida haligacha to'la va tizimli ma'lumotlar bazasi shakllantirilmagan. Shu bois, geoxorbot texnologiyalari asosida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini hisobga olish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda doimiy monitoring yuritiladi hamda davlat va jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi. Bio-xilma-xillikning muhim manbai bo'lgan o'rmonlarni muhofaza qilish, ko'paytirish, qay-



ta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish orqali respublika hududining o'rmon bilan qoplanganlik darajasini 30 foizga yetkazish choralari ko'riladi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish

Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturida tabiatning bebaho ne'mati bo'lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholining toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash hamda bu boradagi mavjud muammolar yechimi yuzasidan ham aniq takliflar ilgari surilmoqda.

Aholining yildan-yilga ko'payib borayotgani, yangi sanoat korxonalarini va ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilayotgani, turar joylar kengayayotgani suvga

“ AHOLING YILDAN-YILGA KO'PAYIB BORAYOTGANI, YANGI SANOAT KORXONALARI VA ISHLAB CHIQRISH OBYEKTLARINING ISHGA TUSHIRILAYOTGANI, TURAR JOYLAR KENGAYAYOTGANI SUVGA BO'LGAN TABIIY EHTIYOJNING HAM MUVOFIQ RAVISHDA O'SIB BORISHINI KO'RSATMOQDA. MAVJUD VAZIYAT ICHIMLIK SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH MEKANIZMINI YARATISHNI KECHIKTIRIB BO'LMAYDIGAN VAZIFA SIFATIDA OLDIMIZGA QO'YMOQDA.

Bo'lgan tabiiy ehtiyojning ham muvofiq ravishda o'sib borishini ko'rsatmoqda. Mavjud vaziyat ichimlik suv resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmini yaratishni kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida oldimizga qo'yimoqda.

Keyingi yillarda kuzatilgan iqlim o'zgarishlari, yilning kutilganidan ko'ra, qurg'oqchilik kelishi, daryolar sathining pasayishi kabi bir qator omillar ichimlik suv ta'minotida yangi muammolar bilan to'qnash kelishimizga sabab bo'ladi.

Nomzodning Saylovoldi dasturida suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy islohotlar olib borish taklif etilmoqda. Bu qanday amalga oshiriladi?

Birinchi navbatda, aholining barcha qatlamlarida, yoshu keksada suvdan oqilona foydalanish ko'nikmasini hosil qilish, uni isrof qilmaslik, har qatna suvda kelajak avlodlar haqi borligini chuqur anglash, uni faqatgina mablag' evaziga sotib olinadigan moddiy resurs sifatida qaramaslik borasida samarali tizim yaratilishi kerak. Buni, avvalo, har bir farzand, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, maktab o'quvchilari — umuman, aholimizning har bir vakiliga chin mohiyati bilan yetkazib berishga qaratilgan platformani yaratib, kundalik hayotga tatbiq qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasidandir.

Suv resurslari taqsimotida qat'iy limit tizimi, suvni tejaydigan va raqamli texnologiyalar to'liq joriy qilinmagani ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga to'siq bo'lib kelyapti. Nomzodning Saylovoldi dasturida suv ta'minotida bozor mexanizmlarini joriy etish, loyihaga tashabbuskorining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, suv hisoblagichlar o'rnatish chora-tadbirlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy mutaxassislar kuzatishlariga ko'ra, yana 20-30 yildan keyin insoniyat ichimlik suv ta'minotida katta muammolarga duch kelishi mumkin. Hozirda dunyoda ro'y berayotgan ichimlik suv muammolari bu taxminlarda asos borligini ko'rsatmoqda.

Suv resurslari iste'molida yana bir muhim jihati alohida ta'kidlash kerak. Endilikda suvni qayta ishlash va undan ikkilamchi mahsulot sifatida foydalanish ishlari samarali yo'lga qo'yilishi zarur. Jumladan, avtotransport vositalarini yuvish shoxobchalari uchun suvdan foydalanish shartlari qayta ko'rib chiqiladi, ularning har biriga foydalanilgan suvni qayta ishlash hamda suvdan takroran foydalanish tizimi joriy etiladi.

Hududlardagi oqova suvlarni tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish hamda yangilarini qurish choralari ko'rish zarur.

Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'rishni belgiladi.

Ushbu dolzarb masala Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturida alohida yo'nalish sifatida aks etgan.

Butun dunyoda global iqlim o'zgarishi bo'yicha vaziyat jiddiyligiga qolmoqda. Dunyo ekspertlarining fikriga ko'ra, 2050-yilga borib, global isish jarayonlari yanada jadalashishi va harorat hozirgi o'rtacha nisbatan 2-3 darajaga isishi bashorat qilinmoqda.

Mutaxassislar Orol dengizi falokati natijasida Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi dunyo ko'rsatkichlaridan 2 barobar jadalroq kechayotganini ta'kidlaydi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlarida Orol dengizining qurishi bilan bog'liq holatlar aholi sog'lig'iga yanada ko'proq ta'sir o'tkazishi ta'kidlanayotgani. Bu borada tezkor choralar ko'rilmasa, kelgusida global tusdagi muammolar bundan-da ayanchli tus olishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi natijasida qor qoplamasi qisqarishi bashorat qilinmoqda. Beqaror iqlim sharoiti, ixtiyordagi suvning yetishmasligi va aholining o'sishi birgalikda rivojlanishning ushbu modeli va mamlakat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlashining hozirgi darajasini o'zining resurslari asosida saqlab qolish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Muammo tezlashib borayotgan shor'lanish va sug'oriladigan yerlarning hosildorligi pasayib borishi bilan chambarchas bog'liq.

Qishloq xo'jaligi hosilining 90 foizidan ortig'i sug'oriladigan yerlardan olinar ekan, vaziyatga muvofiq choralar ko'rish kun tartibiga chiqmoqda.

Shuning uchun ham nomzodning Saylovoldi dasturiga ko'ra, tuproqning unumdor qatlami buzilishi bilan bog'liq jarayonlarda, keyinchalik yerni biologik rekultivatsiyalash yoki unumdorligi past yerlarda foydalanish uchun tuproqning unumdor qatlami olinishi, saqlanishi borasida davlat va jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi. Yerlarni tuproq va shamol eroziyasidan muhofaza qilish, degradatsiya, cho'llanishdan saqlash maqsadida bioremediasion tadbirlarini kengaytirish, ixtozorlar barpo etish va qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi.

Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamogda. Orol dengizining suvsiz qolgan yerlarida yashil o'rmonlar barpo etishni davlat siyosati darajasidagi vazifa qilib belgilash fursati yetdi.

Orolbo'yi mintaqasiga ekologik innovatsiya va texnologiyalarni tatbiq etish ishlari kuchaytirish orqali aholini

ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va ular uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish mumkin. Bu hudud aholisining turmush darajasini ham jiddiy tarzda yaxshilaydi. Nafaqat Nukus, Buxoro, Urganch, Xiva, Navoiy, Mo'ynoq kabi aholi yashash punktlari atrofida, balki aholisi 5000 nafardan ortiq bo'lgan gavjum aholi punktlarining har birida "yashil belbog'lar" barpo etish ishlari yanada jadallashtiriladi. Mazkur hududlardagi yashil istirohat bog'lari maydonlari kengaytiriladi. Ajdodlarimiz e'zozlagan sadaqayrag'och, chinor, terak kabi sersoya daraxtlar ko'paytiriladi. Har bir xonadon hovlisi va uyi oldida ana shu foydali daraxtlarni ekish, parvarishlash va o'stirishning samarali tizimi yaratiladi.

Hozirda tashkil qilingan Milliy tabiat bog'larini rivojlantirishga yanada jiddiy e'tibor qaratiladi. Shahar va tumanlar markazi, shuningdek, aholi gavjum qishloqlarda jamoat bog'lari, yashil maydonlar barpo etish uchun subsidiyalar ajratiladi.

Bunday xayrli ishga birinchi navbatda fermerlar, botanik-olimlar va bog'dorchilik mutaxassislari jalb qilinadi. Har bir mahalla fuqarolar yig'ini qoshida Tabiat va atrof-muhit ekologiyasi noziri lavozimi joriy qilinadi. Bu esa bajarilayotgan ishlar samaradorligini ta'minlaydi. Odamlarda ekologik madaniyat va ekologik tahdidlarga qarshi kurash hissi ham kuchayadi.

Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq hududlar ro'yxatiga kiritilgan Aydar-Amnosoy ko'llar tizimi, "Dengiz-ko'l", "Quyimazor", "To'dako'l", "Sudochye-Akpetke" suv omborlari ekotizimlarining muhofaza qilinishiga alohida e'tibor qaratish muhim. Bunday ishlar samarasi o'laroq yurtimiz yanada go'zallashib, so'lim va yashil makonga aylantiriladi. Natijada mamlakatimizda ekoturizm jadal rivojlanishi uchun muhim omillar vujudga keladi. Suv havzalari hamonlar va o'simlik dunyosining boyitilishi sayyohlar qiziqishini orttirishi shubhasiz.

Ta'kidlash joizki, iqlim o'zgarishlari va ekologik inqirozlariga qarshi kurashish biron-bir mamlakatning yaxlit o'ziga-gina tegishli bo'lgan muammo emas. Bu borada "Birlashgan o'zar" degan qadimiy turkiy hikmatiga amal qilish juda o'rinni.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, Markaziy Osiyodagi Amudaryo va Sirdaryo suv havzalari transchegaraviy daryolar sanaladi. Suv va energiya manbalaridan unumli va kompleks foydalanish, Orol dengizi qurishi bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoratlarni yumshatish siyosati tufayli Markaziy Osiyoda shakllangan mulgaqo yangi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shniqlik muhitini barqaror saqlab qolish muhim vazifalarimizdan biri sanaladi. Xalqlarini ming yillik birodarlik va yaxshi qo'shniqlik rishtalari, mushtarak tarix, din, madaniyat va ana'analarga bog'liq turgan Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Iqlim o'zgarishlarining salbiy ta'siri hamda tahdidlariga qarshi kurash va muhim chora-tadbirlar ishlab chiqishda, albatta, qo'shni mamlakatlar bilan yaqindan hamkorlikni davom ettiramiz. Ayniqsa, Turkmaniston va Qozog'iston Respublikalari bilan birgalikda Orol dengizi halokati ro'y bergan hududlarda ekotizimni qayta tiklash, qum va tuz bo'ronlaridan himoyalovchi yashil ixtozzorlar barpo etish, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha aniq dastur va rejalar asosida xalqaro ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshiriladi. Hududda ish o'rnatil, qulay va yaxshi turmush sharoitlari yaratish bosh maqsadimizga aylangan.

Xalqimizda qars — ikki qo'ldan, degan naql hamjihatlik, mushtaraklikka da'vat qilish maqsadida aytilib kelinadi. Biz oldimizga qanchalik ulug'vor hamda ezgu maqsadlarni qo'yaylik, ularni amalga oshirishda, albatta, yuragida o'ti bor shijoatli aziz eldoshlarimiz hamkorligiga tayanamiz. Har qanday ezgu ishning bosh ijodkori xalqimiz sanaladi. Hamjihat va ahil xalq irodasi har qanday og'ir muammoni ham bartaraf qilib kelgani o'tmish saboqlaridan bizga yaxshi ma'lum.

O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturiga kiritilgan ushbu muhim yo'nalishlar xalqimiz manfaatlarini va mamlakatimiz yashil taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Buni faol qo'llab-quvvatlash uchun partiyamizdan Prezidentlikka nomzodga ovoz bering!

Navro'zbek YUSUPOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi

O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASIDAN PREZIDENTLIKKA NOMZOD ABDUSHUKUR HAMZAYEVGA OVOZ BERING!

TAHLIL VA TAQQOS

XALQIMIZ BUGUN FAROVON YASHASHGA HAQLI

Bu yo'lda bor imkoniyatlar ishga solinyapti



Umid MADAMINOV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi boshqarma boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Keyinchalik esa turmush darajasini o'rganishda aholining turli qatlamlari manfaatini uyg'unlashtirish, ular o'rtasida qaralama-qarshiliklarni yumshatish, asosiy daromadlari bo'yicha tabaqalanishiga chek qo'yish va qashshoqlikni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratishga urg'u berildi.

Turmush darajasining o'rtacha parametrlarini baholashda olimlar differensial yondashuvni qo'llaganlari erishilgan yutuqlardan biri bo'lib, bu, ayniqsa, aholining ayrim qatlamlari ehtiyojini qondirish jarayonida iqtisodiy imkoniyatlarni to'g'ri taqsimlash jihatidan muhim hisoblanadi.

BMT tavsiyasiga ko'ra, kambag'alik darajasi, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlar holati, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar mavjudligi, ish sharoiti va bandlik darajasi, daromad va xarajatlarni muvozanati, iste'mol narxlarini, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlari, ijtimoiy ta'minot tizimi, inson huquq va erkinliklari kafolatlangani kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Lekin bu ko'rsatkichlarning hammasini ham qiymat ko'rinishida baholash imkoni bo'lmagan bo'lsa, turmush darajasi ushbu parametrlardan bir nechtasini qamrab olgan holda baholanadi.

Aholi farovonlik darajasining tahlili uy xo'jaliklarining iqtisodiy resurslarga egalik qilish imkoniyati, ularni iste'mol qilishga yoki jamg'arishga, shuningdek, ulardan birini talashga qodirlikni aniqlashga imkon beradi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat yuritilmoqda. Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish, insonlarga o'z sa-

lohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, munosib hayot kechirishga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish borasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Aholi turmush darajasini oshirish borasida taraqqiyot strategiyasining 21 maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 barobar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming dollardan oshirish hamda "daromad o'rtaqchadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish, ya'ni o'ta kambag'allikka barham berish, nisbiy kambag'allik darajasini 2 barobar kamaytirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston ijtimoiy siyosatida kambag'allik muammosini hal etish alohida o'rin tutadi. Mamlakatimizda kambag'allikka qarshi faol kurash 2020-yilda O'zbekiston ushbu muammoni ochiq tan olgan paytdan boshlandi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvat-

asosida minimal iste'mol xarajatlari qiymati, aholi daromadlari, iste'mol xarajatlari, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlangani, uy-joy sharoiti va qulayliklari, ichki turizm va aholining jismoniy faolligi, AKT vositalaridan foydalanishi to'g'risidagi ma'lumotlar to'planadi.

Uyma-uy yurgan holda o'tkazilgan so'rovnomalar ro'yxatiga 150 dan ortiq turdagi oziq-ovqat, 200 dan ziyod turdagi nooziq-ovqat mahsulotlar hamda boshqa xizmat turlari va ularga qilingan xarajatlarni kiritildi. Bunda so'rovda ishtirok etgan uy xo'jaliklari xarajatlari miqdori bo'yicha o'nta guruhga bo'linib, ulardan eng kam xarajat (daromad) ega uy xo'jaliklari alohida ajratildi. Hisob-kitoblarni minimal iste'mol xarajatlari (MIX), aholi jon boshiga kunlik daromad asosida amalga oshirildi.

2022-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi 3 foiz qisqargan va 14 foizni tashkil etgan (2021-yilda bu ko'rsatkich 17 foiz bo'lgan). Yil davomida kambag'allik da-

foydalaniladigan muhim indikator umumiy daromadlar (joriy tushumlar) hisoblanadi. Chunki ular iste'mol qilish yoki jamg'arish imkoniyati oshirishini ko'proq ta'minlaydi.

Aholining umumiy daromadlari — majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi. Mazkur yo'nalishga pul va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Turmush darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarini aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanish, daromad bo'yicha taqsimlash kabi ko'rsatkichlar xarakterlaydi. Pul daromadlari barcha kategoriyalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar mablag'lari, nafaqa, tushum, stipendiya, qo'yilmalar bo'yicha foiz ko'rinishida mulkdan olinadigan, qimmatbaho qog'ozlar, dividendlar, renta, ko'chmas mulkni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollari sotishdan tushumlar, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlar va boshqalardan iborat.

Agar raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar ulushi 67,9 foizni, shundan 61,6 foizni mehnat faoliyatidan olingan daromadlarni, 6,3 foizni shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarni tashkil etgan.

Bozor sharoitida asosiy ish joyidan beriladigan ish haqi aholining aksariyat qismi uchun yetakchi daromad manbai hisoblanadi. Aks holda, u funksional rolini bajarolmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi aholi jami daromadining 60-80 foizini tashkil etadi, ya'ni ularning me'oriy hayot

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 10 yillik dinamikasi, ming so'm



faoliyatini ta'minlash poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Agar MDH mamlakatlarining aholi daromadlari tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yollanma ishchilarning ish haqi sifatida olgan daromadlari Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasida 55 foizdan 69 foizgacha qamrab olgan bo'lsa, Qirg'izistonda o'rta 40 foiz atrofida, O'zbekistonda 28,3 foizni tashkil etadi. Ijtimoiy to'lovlarning ulushi Belarusda 29 foiz bo'lsa, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasida 16 dan 18 foizgacha, O'zbekistonda esa 10,5 foizga teng.

Shuningdek, aholi umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlar 2,4 foizni, transfertlardan olingan daromadlar 29,8 foiz atrofida bo'lgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida aholining mazkur sohadan olingan daromadlari ulushi yil sayin oshib borib, 2022-yilda 56,9 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2010-yilda 50 foizga teng ekanini inobatga oladigan bo'lsak, u bu davrda

7 punktga ko'payganini ko'rsatadi. Mazkur natijaga kichik biznesga imtiyozli kredit va subsidiyalar orqali davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash hisobiga erishildi.

Aholi daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning ish haqi nisbatan ijtimoiy transfertlar o'sishi kuzatilmoqda. Bu esa o'tgan yilgi og'ir iqtisodiy sharoitlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sezilarli darajada kuchayganidan dalolat beradi.

Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlar ta'siri juda kam bo'lsa-da, tijorat banklari bo'lgan ishonchning ortishi, innovatsion ishlanmalarning rivojlanishi, qolaversa, aksiyadorlik korxonalarini daromadlarining ortishi, uy-joy va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish va shu kabi bozor mexanizmlarining takomillashuvi natijasida ular qo'lga kelib tushayotgan foizlar, dividendlar, mulliflik haqlari va shu kabi mulkiy daromadlar ham yil sayin ortib borayotganini kuzatish mumkin. Masalan, 2010-yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida mulkiy daromadlar ulushi 2,3 foizga teng bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 2,4 foizni tashkil etgan.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, kambag'allikka qarshi kurashishning milliy va o'ziga xos imkoniyatlarini namoyish etgan 2022-yilda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtrish, yashash minimumi uchun yetarli bo'lmagan pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish, bu bilan ijtimoiy ta'minot oluvchilarning Bosh qonunimizda belgilab qo'yilgan huquqlari ro'yobga chiqishiga asos bo'lib xizmat qilayapti. Bularning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda xalqimiz farovonligi va uning to'la-to'kis hayot kechirishiga zamin yaratish maqsadlariga qaratilganini amalda tasdiqlaydi.

Zero, yangi O'zbekistonda xalqimiz kelajakda emas, balki bugungi kunda ham farovon yashashga haqlidir.

NUQTAYI NAZAR

"E-AKTIV" amal qilishining uzaytirilishi, MUROJJAATLAR rag'batlantiriladigan

Soliq tizimida qanday yangiliklar joriy etilmoqda?



Yunusjon NASIMJONOV, Toshkent shahar soliq boshqarmasi boshlig'i

Jumladan, 2023-yil 1-iyundan boshlab soliq sohasida bir qator yangiliklar amaliyotga kiritildi. Misol uchun, endilikda fuqarolar "Soliq hamkor" tizimi orqali noqonuniy alkogol va tamaki mahsulotlari savdosi yuzasidan murojaat yo'lashlari mumkin. Ya'ni oy boshidan qalbaki aksiz markali yoki aksiz markasiz, markirovkalanmagan, ruxsati bo'lmagan, sifatsiz alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish kabi qonun buzilishi holatlari haqida soliq organiga murojaat yo'llash tizimi ishga tushirildi. Mazkur tizimdan kelib tushgan murojaatlar nazorat va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun asos bo'ladi va u o'n ish kunida majburiy tartibda ko'rib

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida soliq alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda, respublikamiz soliq tizimida soliqchi — ko'makchi tamoyili asosida bir qator o'zgarish va yangilanishlar kuzatilayotgani diqqatga sazovordir.

chiqilib, natijasi bo'yicha murojaatchi xabardor qilinadi.

Tasdig'ini topgan murojaatlar bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlik uchun jarimaning 20 foizi, jinoyatlar uchun esa bazaviy hisoblashning 5 baravarigacha miqdordagi rag'batlantiriladi. Shuningdek, "Soliq hamkor" yordamida chek bermaslik, plastik kartaga savdo qilmaslik, mahsulotni plastik kartaga qiymat solish va noqonuniy tadbirkorlik faoliyati yuzasidan murojaat qilsa bo'ladi.

Joriy yilning 1-iyunidan, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'i (noturar ko'chmas mulk obyektlari bundan mustasno) bo'yicha muddatda to'lanmagan qarzigacha hisoblangan penya; oxirgi 6 oy mobaynida moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat'i belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliqdan vujudga kelgan qarzi, ularga hisoblangan penya va jarimalar; xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorligi uchun qo'llanilgan jarimalar summasi bekor qilindi.

Ushbu soliq qarzi, penya va jarimalarni undirish bilan bog'liq sud va jiro ishlari tugatiladi. Shu bilan birga, daromad solig'ini qaytarib berish tartibi joriy etiladi.

Bundan tashqari, joriy yil 1-iyuldan 2024-yil 1-iyulgacha issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko'p bo'lgan tadbirkorlar tomonidan ishchilarning mehnatga haq to'lash tartibidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilinganda tadbirkorlarga qaytarib berish tartibi joriy etiladi. Bunda har bir 5 sotix yer maydoni uchun oyiga kamida bir nafar ishchi bandligi ta'minlanishi, har bir ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan (980 ming so'm) miqdordagi maosh belgilanishi, issiqxonaga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan issiqxonaga faoliyati bo'yicha olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etishi lozim.

Shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan asosiy vositalar,



nomoddiy aktivlar va tovar-moddiy resurslarni hisobga olish hamda o'z ustav fondini shakllantirish va kamaytirish bilan bog'liq barcha operatsiyalarni soliq organlarining "E-Aktiv" axborot tizimida ixtiyoriy aks ettirish tartibining amal qilish muddati 2024-yil 1-aprelga qadar uzaytirildi.

2024-yil 1-iyungacha yer uchastkalaridan hujjatsiz foydalanayotgan jismoniy

shaxslarga yer solig'ining 3 karra oshirilgan stavkasida soliq hisoblash tartibi to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi qaroriga muvofiq esa fermer xo'jaliklariga 2023-yil 1-iyun holatiga shakllangan suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq qarzini 12 oy mobaynida teng ulushlarda foizsiz bo'lib to'lashga ruxsat berildi. Shuningdek,

elektron hisobvaraqt-fakturalarni to'ldirish tartibiga o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni iyun oyidan boshlab ularni rasmiylashtirishda yetkazib beruvchi toifasi shartliq belgilab qo'yildi. U ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchi, vositachi, xizmat ko'rsatuvchi ekanligi EHFda qayd etilishi kerak. Qolaversa, unda realizatsiya maqsadi ko'rsatilishi shart. Mazkur ma'lumotlar kiritilmasa, EHF rasmiylashtirilmaydi. Ushbu tartib o'tgan davrlar uchun rasmiylashtiriladigan tuzatuvchi yoki qo'shimcha EHF'larga ham tatbiq etiladi.

Kezi kelganda qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar aholiga qulay sharoit yaratish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Ya'ni bugun yurtimizda inson manfaatini himoya qilish eng ustuvor vazifaga aylangan, oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Barcha davlat idoralari faoliyatida aholining murojaatlari bilan ishlashga alohida urg'u berilib, bu boradagi ishlar sifat jihatidan mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etilmoqda. Xususan, o'tkazilayotgan sayyor qabullar xalqning dardini eshitish ularning muammolarini hal etishda, shak-shubhasiz, kutilgan natijalarni bermozda. Shundan kelib chiqib, boshqarmamiz tomonidan aholi va yoshlar bilan o'tkazilgan ommaviy sayyor qabullar jarayonida 78 ming 572 fuqaroning bandligi ta'minlandi. Ehtiyojmand oilalar qatorida bo'lgan 90 ming 574 fuqaroga 21,1 milliard so'mlik amaliy yordam ko'rsatilib, 188 nafariga 6,2 milliard so'mlik imtiyozli kredit, 116 nafariga 1 milliard so'mlik subsidiya ajratilishida amaliy ko'mak berildi.

Mahallalarda yoshlar bilan o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlarda yig'it-qizlarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishlari uchun ko'maklashib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan bunday tadbirlar izchilik kasb etayotgan islohotlarning natijasi sifatida inson qadri va manfaatiga xizmat qilmoqda.

SOG'LOM TURMUSH TARZI

SPORTDA CHINIQQAN

dori-darmonga muhtoj bo'lmaydi



Fotima RAHMATOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

Aholining reproduktiv salomatligini yaxshilash, ayollarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va doimiy nazoratga olish, bepul vitaminlar bilan ta'minlash, yurtimizning chekka hududlarida istiqomat qilayotganlarni sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish maqsadida joylarda oilaviy poliklinikalar barpo etish va ularni zamonaviy tibbiy uskunalar hamda malakali kadrlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgan.

Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Ona va bola skrining markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Perinatal markazlar tashkil etildi. Tug'uruq komplekslarida qayta qurish va ta'mirlash ishlari olib borilib, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning barcha darajasini uyg'un holda rivojlantirish, tizimni zamonaviy talablarga moslash bo'yicha keng ko'lami ishlar bajarilmoqda. Jumladan, yurtimizda ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida zamonaviy skrining dasturlari joriy etilmoqda. "Ona va bola" hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmu'ualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalarni muhofaza qilish tizimi takomillashtirildi.

Hayotimiz quvonchi, avlodimiz davomchisi

Yurtimizda aholining 60 foizga yaqini yoshlar tashkil etadi. Shu ma'noda, navqiron avlodning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk ulg'ayishiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu haqda gap kelganda, bolalar salomatligini ta'minlash borasida salmoqli ishlar qilinayotganini ta'kidlash o'rinni. Jumladan, 2022-yil 1-maydan boshlab barcha ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda bolalar bo'limi tashkil etildi. 17 mingdan ziyod tibbiyot brigadalari yana qo'shimcha 8,5 mingta bolalar hamshirasi va doya (akusher) shtatlari berildi. Ular onalarga bolalarning sog'lom bo'lib dunyoga kelishidan tortib, voyagga yetguniga qadar to'g'ri parvarish qilishni o'rgatmoqda.

Donishmand xalqimizda bir naql bor: kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini

Ushbu ishlar davom ettirilib, 2022-yil 1-iyuldan boshlab 3-15 yoshli bolalarga yod preparatlari davlat tomonidan bepul tarqatilishi joriy qilindi. Bu orqali kelgusi besh yilda bolalarda buoq, kamqonlik kasalliklarini 30 foiz kamaytirish, ularning aqliy va jismoniy sog'lom rivojlanishi uchun asos yaratiladi.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Har bir sohaga yuqori texnologiyalar, innovatsion uslublar kirib kelmoqda. Jumladan, tibbiyot sohasiga ham. Ana shu talabdan kelib chiqib, bolalarga birlamchi bo'g'inda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni yuqori texnologik amaliyotlar bilan bog'lashga e'tibor qaratilayotgan. Bu borada Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya markazida genetik laboratoriya hamda uning 13 ta hududiy bo'limlari tashkil etilishi belgilangan. Ushbu laboratoriya bolalar orasida nogironlikka olib keluvchi, jumladan, kam uchraydigan (orfan) kasalliklarni erta aniqlash



olgan afzal. Ana shu mantiq asosida bolalar uchun profilaktik ko'riklar dasturi qayta ko'rib chiqilib, 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni pediater, stomatolog, endokrinolog, ortoped kabi eng zarur mutaxassislar tomonidan manzilli ko'rikdan o'tkazish tizimi joriy qilindi. Bu esa kasalliklarni erta aniqlash va o'z vaqtida ularni davolash choralari ko'rish imkonini bermoqda.

2021-yildan boshlab bolalar uchun ovqatni boyitadigan qo'shimchalar, vitamin A va b'ijiga qarshi antigelmint preparatlarni bepul berish yo'lga qo'yilgandi.

bo'yicha genetik tekshiruvlar o'tkazilgan zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlanadi.

Sog'liq — o'zimizga bog'liq

Mamlakatimizda yoshlar o'rtasida sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga katta kuch, mablag' safarbar etilgan. O'tgan yillarda bolalar sportini rivojlantirish, ularni ommaviy sportga jalb qilish borasida ulkan ishlar bajarildi. Jumladan, Besh tashabbus olimpiadasining tashkil etilishi



avlod

va muntazam o'tkazilayotgani, eng chekka hududlarda ham muhtasham sport majmu'alarining bunyod etilgani va ushbu maskanlarda sport mashg'ulotlarini o'tagan yoshlarning dunyo arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgani sog'lom avlodni tarbiyalashdek ulug'vor maqsadimizni ifoda etadi.

Bir paytlar qishloq joylarida qizlarning badiiy gimnastika bilan shug'ullanishini tasavvur qilib bo'lmagan edi. Bugun sportning bu turi bo'yicha federatsiya tashkil etilgan. Barcha hududlarda sharoitlar yaratilayotgani sabab badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanadigan qizlar soni oshmoqda.

Besh muhim tashabbus hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida o'z hududlarida ham yangi sport obyektlari ishga tushirilib, yoshlar sportga faol jalb etilmoqda. Bugun yurtimizda 2 million nafardan ziyod bola 30 dan ziyod sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish yoshlarning jismoniy rivojlanishi, salomatligining mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan davrda bolalar o'rtasida o'tkir respirator virusli infeksiyalar, pnevmoniya (zotiljam), bronxit, skolioz umurtqa pog'onasi qiyshayishi kabi xastaliklarga chalinish holatlari kamayganini kuzatish mumkin.

Sport, avvalo, salomatlik degani

Jismoniy faoliyat barcha yoshdagi bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Sportga oshno bolalarda immun tizimi, yurak hajmi, o'pkaning tiriklik sig'imi va boshqa bir qator ko'rsatkichlar yuqori darajada bo'ladi. Salomatlik uchun jismoniy holatni muntazam saqlash muhimligi isbotlangan. Bu ortiqcha vaznni kamaytirish, yurak-qon tomir

va metabolik kasalliklarning rivojlanish xavfiga qarshi qulay tuzilmani yaratish, shuningdek, suyak to'qimasini mustahkamlash hamda depressiya belgilarini kamaytirishga yordam beradi.

Sport bilan shug'ullanadigan bolalar va o'smirlarda chiniqish, chaqqonlik, epcchilik xislatlari oshish bilan birga, ular organizmining biologik xususiyatlari ham jiddiy ravishda o'zgarib boradi. Bu holat ularda nafaqat organizmning, balki ruhiy-psixologik holatning ham rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, suzish va badiiy gimnastika kabi keng ommalashgan sport turlari shug'ullanuvchilar salomatligiga nihoyatda ijobiy ta'sir qiladi.

O'rtacha ko'rsatkichlarga ko'ra, sport bilan shug'ullanadigan qizlar (ayniqsa, gimnastikachilar) va o'g'il bolalar uchun o'rtacha vazn-bo'y indeksi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlariga to'la mosdir. Suzish va badiiy gimnastika bilan shug'ullanish jinsidan qat'i nazar, barcha yoshdagi bolalarning sog'lom ulg'ayishiga yordam beradi. Ikkala sport turi ham, ayniqsa, qizlarning rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadi, ammo eng uyg'un rivojlanish badiiy gimnastika bilan shug'ullanadigan qizlarda namoyon bo'ladi. Bu holat suzish bilan shug'ullanadigan o'g'il bolalarda ham kuzatiladi. Shu bois, bugun farzandlarimizni erta yoshdanoq sport va jismoniy faol turmush tarziga jalb etishimiz maqsadga muvofiq.

Bolalar va o'smirlarni sport turlariga jalb etishning boshlang'ich bosqichida jismoniy tarbiya — sog'lomlashtirish va tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Bunda asosiy e'tibor jismoniy tayyorgarlikka va tanlangan sport turining texnikasi asoslarini o'zlashtirish, jismoniy xususiyatlarga qaratiladi. Shu bilan birga, bolalar va o'smirlar organizmining asab tizimi, individual qobiliyati, moyilligi,

sport turini tanlash, tayyorgarlik bosqichiga o'tish kabi nazorat standartlarining bajarilishi hisobga olinadi.

Ushbu bosqichda o'quvchilar umumiy jismoniy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha nazorat va ko'chirish standartlarini bajaradi. 12-14 yoshli o'quvchilar kamida 1 yil davomida zaruriy tayyorgarlikdan o'tadi va umumiy jismoniy hamda maxsus tayyorgarlik bo'yicha qabul me'yorlarini bajargan sog'lom o'quvchilardan tanlov asosida guruhlar shakllantiriladi. 15-16 yoshli sportchilardan tashkil topgan guruhda o'quv bosqichidan o'tgan hamda sport mahorati darajasiga qo'yiladigan talablarni bajargan o'smirlar shug'ullanadi.

Suzish va badiiy gimnastika bolalarning o'sishi hamda rivojlanishini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Bunda barcha yosh guruhlari qizlar va o'g'il bolalarda qo'llarning mushaklari kuchi va chidamliligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Ko'proq darajada bu ko'rsatkichlar intensiv sport mashg'ulotlarida ifodalangani. Jismoniy va ruhiy-hissiy rivojlanishning qoniqarli ko'rsatkichlari bevosita bola yoki o'smirlar bilan shug'ullanishga bog'liq. O'g'il bolalar uchun suzish, qizlar uchun esa badiiy gimnastika bu yoshda zarur jismoniy faoliyatni ta'minlaydi. Shu bilan salomatlikni, faollikni, kayfiyatni yaxshilaydi. Demak, sport xalqimizning azaliy orzusi — barkamol avlodni kamolga yetkazish, ular timsolida Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishda muhim o'rin tutadi.

DOLZARB MAVZU



Erkin XOLMATOV,
Jizzax viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda ham atrof-muhit muammolarini o'rganish, ularni hal etish masalalarini davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf etish, ekologik ta'limgi joriy etishga qaratilgan e'tibor va bu borada me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgani fikrimiz dalildir.

Bu borada O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni bilan mamlakatimiz ekologiya sohasida keng ko'lami islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha qator dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Butun mamlakat miqosida "Yashil

EKOLOGIK MUAMMOLARNING

makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot va tahlillarni amalga oshirish hamda buning natijasida hududlar kesimida respublika xaritasini ishlab chiqish, ko'chatxonalar sonini ko'paytirish shular jumlasiga kiradi.

Farmon bilan davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi. Moratoriy talablarini buzganlik uchun ma'muriy jarimalar miqdori besh barobar, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar summalari ikki barobar oshirildi.

Respublikamizda ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasining amalga oshirilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlari ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan. Endilikda barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo'yicha keng ko'lamda ish olib borilayotgani tashiga sazovor. Shu bilan birga, har yili bahor va kuz oylarida ekiladigan daraxtlar parvarishiga, ularning keyingi taqdiriga ham e'tibor qaratilishi lozimligi belgilandi.

Jizzax viloyatida "Yashil makon" umummilliy loyihasini hayotga tatbiq etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 2023-yilning bahor mavsumida viloyat hududida 10 million 57 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Ushbu ko'chatlar "Yashil makon" elektron platformasiga kiritilgan bo'lib, viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va



iqlim o'zgarishi boshqarmasining barcha tuman va shahar bo'limlari davlat inspektorlari tomonidan ular haqiqatda ekilganligi tasdiqlandi.

Har bir daraxt ko'chatini ekishda sug'orish tizimiga alohida e'tibor qaratildi. "Yashil makon" elektron platformasiga kiritilgan 10 million 57 ming tup daraxt va buta ko'chatini parvarishlash uchun har bir korxonaga, tashkilot va muassasa rahbarlari, mas'ul shaxslarga dalolatnoma asosida biriktirildi. Shuningdek, ekilgan ko'chatlarni sug'orish, parvarish qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. 47 ta korxonaga, tashkilot va muassasada jami 335 ming 494 tup ko'chatning sug'orish tizimi tashkil qilinishiga erishildi.

Mahalliy hokimliklar bilan birgalikda barcha toifadagi yer maydonlarida, jumladan, aholi tomorqasi, sug'oriladigan va lalmi yerlar, cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida mevali, yong'oq mevali, uzum plantatsiyalariga ekilgan ko'chat va qalamchalar ham "Yashil

makon" elektron platformasiga kiritib borilmoqda. Jumladan, Forish tumanida faoliyat olib borayotgan "Lazzat kafolati" xususiy korxonasi tomonidan tumaning lalmi yerlardagi 87 gektar yer maydonida 98 ming tup tok ekilgan edi. Ayni kunlarda ularni tomchilatib sug'orish tizimi shakllantirilib, yozning jazira issiq kunlarida nihollar obiyahoy bilan to'yintirilmoqda.

Zomin tumanida faoliyat olib borayotgan "Zamin wonderful food" MCHJ tomonidan 100 gektar lalmi yerda 120 ming tup mevali ko'chat ekilib, bog' tashkil qilish bilan birga tomchilatib sug'orish tizimi ham yo'lga qo'yildi.

Alohida ta'kidlash joizki, viloyatda daraxt ko'chatlarini ekishda har bir hududning tabiiy sharoiti, iqlimi, tuprog'i va boshqa omillarini hisobga olinib, bevosita olimlar, mutaxassislar va bog'bonlarning tavsiyalari asosida ekilmoqda.

Jumladan, "O'zavtomotors" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2021-yilning kuz

va 2022-yilning bahor mavsumlarida Arnasoy tumanining cho'l hududlaridagi 103 gektar maydonga 80 000 ga yaqin pavo'lni, zarang, shumtol, katapa, qayrag'och va yapon saforasi daraxtlari ko'chatlari ekilgan edi.

Cho'l hududlarida daraxt o'stirishning o'zi g'oyat mushkul vazifa. Bunday hududlar tabiatining o'ziga xosligi, haroratning yuqori bo'lishi va namlikning keskin pastligi dov-daraxtlarning gurkirab o'sishida cheklavchi omil ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Ammo shunga qaramasdan, ekilgan ko'chatlarning o'z vaqtida parvarish qilinishi natijasida daraxtlarning qariyb 90 foizi ko'kardi. Bu ishlarni amalga oshirishda Hindistonning Haydarobod shtatida dunyodagi eng katta yashil hududlarining asoschilaridan bo'lgan "Pragati Group" kompaniyasi bilan hamkorlikdagi ishlar yaxshi samara beryapti.

Kompaniya rahbari doktor G.Raoning aytishiga qaraganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi tabiat va insonlar hayoti uchun nihoyatda zarur tadbir hisoblanadi. Arnasoy tumanidagi ushbu yashil hudud 5 yildan keyin ulkan boqqa aylanib, ekotizimlarning barqarorligi, bioxilma-xillikning boyishi va ekoturizmning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Loyiha doirasida yashil hududda tozalikni asrashga katta e'tibor qaratiladi. Kelgusi rejalarga ko'ra, Hindistonning "Valmiki" kompaniyasi bilan hamkorlik olib borilib, chiqindilarni qayta ishlash, plastik chiqindilarni qayta ishlash, o'zgarib qaratilgan choralar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Hozirda bu yerda daraxtlarni tomchilatib sug'orish tizimini shakllantirish ustida ish olib borilmoqda. Buning uchun ko'ldan suv tortib kelinib, Xitoy texnologiyasi asosida sho'r suv chuchuk suvga aylantiriladi va ko'chatlar sug'oriladi. Yangi texnologiya asosida bir kunda 70 ming metr kub suv qayta ishlanaadi. Arnasoy tumanida barpo etilgan yashil hudud loyihasini amaga oshirish uchun hozirgacha 1 million AQSH dollari qiymatida mablag' sarflandi. Suv avtotransport vositalarida olib kelinib, ko'chatlar sug'orilmoqda.

Ayni paytda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan daraxt va qalamchalarni sug'orish bilan birga, nihollarni zararkunandalarning salbiy ta'siridan himoya qilish maqsadida agrotexnik tadbirlar ham o'tkazilmoqda.

"Yashil makon" umummilliy loyihasining hayotga tatbiq etilishi tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarning oldini olish borasida eng muhim dasturilamal bo'lmoqda. Hech shubhasiz, yashil hududlarni kengaytirish, yashil maydonlar va jamoat parklarini tashkil etish atrof-muhitni ko'kalamzorlashtirishga qolmay, balki atmosfera havosining ifloslanishi, tuproq eroziyasi, iqlim o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi va ayni keza eng dolzarb muammolardan biri bo'layotgan qum va chang bo'ronlarining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAKTAB YARATGAN

san'atkor

SAN'ATKORLAR TO'G'RSIDA GAP OCHILGANDA, O'ZIGA XOS MAKTAB YARATGAN, DEYISH RASM BO'LGAN. KAMOLIDDIN RAHIMOV HAR BIR QO'SHIG'IDA MAKTAB YARATGAN SAN'ATKOR! YETUKLIK, USTOZLARGA SADOQATLI SHOGIRDLIK, SHOGIRDLARGA TALABCHAN VA G'AMXO'R USTOZLIK, OTANASI VA XALQIGA MUNOSIB FARZANDLIK, SOLIH VA SOLIHA VORISLARIGA MEHRIBON OTALIK, O'Z SOHASINING MIRIDAN-SIRIGACHA BILADIGAN QOMUSIY BILIMDONLIK, QO'YINGKI, NAMUNA DORILFUNUNINI YARATGAN, ASL BAXTGA ERISHGAN SAN'AT DARG'ASI, BO'LGANINI TAN OLMASLIK ILOJSIZ. AKS HOLDA, KAMOLIDDIN RAHIMOVNING O'ZI BU QADAR SEVIMLI, QO'SHIQLARI BU DARAJADA DILTORTAR BO'LMASDI.

Ziyoviddin MANSUROV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi Namangan viloyat
bo'limi rahbari,
"El-yurt hurmati" ordeni
sohibi

yoxud odamiylikda ham ibrat bo'lgan Kamoliddin Rahimov haqida

Boshlanishi 1-betda

XX asrning oltmishinchi yillarida Bola baxshi, Hojixon Boltayev, san'atni baland maqomga ko'targan Komiljon Otaniyozov, lirik qo'shiqlariga oshuflarni ohanrabodiy tortgan Faxriddin Umarov, sohir nolalari bilan qo'shiq shaydolarini "O'xshaydi-ku"-lab yuborgan Tavakkal Qodirov, dutorini "qul-qul"lab "Indamadi"si bilan ko'ngillarini sel qilgan Ne'matjon Qulabdullayev, o'zining bas-bariton ovoziyu torning eng tepasida hech qaysi hofiz ishlamaydigan "bas" atalguvchi qo'shaloq simni avtomatday dilrillatib, dilrani zirillatgan Komiljon Baratov kabilar ana shunday benazir hofizlar timso-lida mavq topgan.

Nomi tilga olingan hofizlar xalq ongida shakllangan an'anaviy tasavvurlarni tamomila o'zgartirib, milliy san'atimizga yangi-chah ruh kiritdi. Yangi havo millionlab mux-lislar qalbini zabt etdi, suyuqli hofizlarga aylantirdi. Natijada konsertlari zamonaviy tilda "anshlag" bo'lib, ularga dovruc kel-tirdi. Biroq "Shuhrat — ofat" ekan. Ayni holat uzoqqa cho'zilmadi. Salohiyatining favqulodda ro'yobga chiqishi, ommabop-likning ta'sir doirasidan qo'rqgan sobiq tu-zum ideologiyasi tarafdin bunday yetuk san'atkorlarning turli vaj-korsonlar bilan yomonotliqqa chiqarilishi, ular atrofiga tur-fa uydimarlar tarqatilishi oqibatida Komiljon Otaniyozov falajga, Faxriddin Umarov va Tavakkal Qodirov taqiqqa, Komiljon Bara-tov hibsga yo'liqtirildi.

Bir yomonning bir yaxshisi bo'lganiday, o'zi suygan hofizlarni sog'ingan, yangi ohanglarni qo'msagan xalq toleiga Yaratan-ganning inoyati ila yangi-yangi iqtidorlar, sehlri ovozlari, xush yovuvchi nafaslar paydo bo'ldi. Xorazmdan Olmagan Hayitova, Ortiq Otajonov, To'rtko'ldan Otajon Xudoyshukurov, Toshkentdan Baxtiyor To'laganov, Xayrulla Lutfullayev, Andijon-dan O'rinboy Nuraliyev, Sherali Jo'rayev, Nuriddin Hamroqulov, Farg'onadan Soli-ron Mamatov, Qobiljon Yusupov, Nazir-ron Nazarov, Qashqadaryodan Tojiddin Murodov, Buxorodan Ahmadjon Shukurov va boshqa yangi nafas, yangi ovozlari qo'shiqchiligimiz bo'shliqlarini to'ldira boshladi. Sir emaski, ular o'z yo'nalish-larini topishida o'zlaridan avvalgi ustozlar maktabi hal qiluvchi omil bo'lgan. O'z kamoli bilan ustozlar jamolini ko'rsatgan shogirdlarning oldingi saflarida ismi jismi-ga mos Kamoliddin Rahimov ham bor edi.

U 1943-yil 12-yanvarda Namangan shahrida tug'ilgan. Toshkent madaniyat in-stitutini tugatgan hofiz ashula saboqlarini, dastavval, Vahobjon Abdullayevdan o'rgan-gan. Namangan madaniyat uyi qoshidagi Usta Ro'zimaxon nomidagi ashula va raqs ansambli-xonanda, musiqa rahbari, ba-diiy rahbar bo'lib ishlagan. 26 yil davomida esa viloyat teatrida yakkaxon xonanda va-zifasida faoliyat yuritib, samarali ijod qildi.

Uslubda o'ziga xoslik sirlari

O'zining xalqchil ashulalari bilan million-lab muxlislar qalbini ishg'ol etgan manzur-nafas hofiz Kamoliddin Rahimovning tez orada tilga tushishi, dovruc qozonishi, vovdiydan to'poytaxt-u voha, qo'shni mam-lakatlar, bora-bora xorijdagi shinavandalar dilini egallashining omillari, sinoatlari, o'zi-ga xosliklari nimada edi?

"Ustoz ko'rmagan shogird har maqom-ga yo'rg'alar", deganlaridek, Kamoliddin Rahimov o'z yo'lini topishida ko'p ustoz ko'rdi, ulardan hunar va odob darslarini o'zlashtirdi. Ustozlarining yurish-turishi, muomalasi, qisqasi, xarakterini sinchiklab o'rgandi. Qaysi fazilat yoqsa, o'ziga yuq-ritish, aksincha, yoqmaganlaridan yiro-qlashishni bosh mezon qilib oldi. Hat-to bir gal suhbatlashayotib, shaxsidagi ajoyib ustunlikni kimdan o'rganganini so'raganida ustozlari Yunus Rajabiy, Orifali Maxsumov, Ma'rufxo'ja Bahodirov, Faxriddin Umarov, namanganlik Nuri maxsum, Vahobjon Abdullayev, Sovtoldi Yo'ldoshev, Nasriddin Majidovning o'git-yo'riqlari asqatganini minnatdorlik bilan qayd etgandi.

Kamoliddin aka taqvo-e'tiqodda ham sobit, imon-diyonatda barqaror, namoz-ni-yozda qoyim, chin ma'noda, mo'min-mu-sulmon banda edi. O'tgan ajdodlar, ustozlar ruhini tilovat, ehson-u xayrii yumushlar bilan xushnud etishni kanda qilmasdi. Bolalik qadrdonlari, qarindosh-urug'lari, shogird-lari, hatto "fanat" muxlisleri holidan doimo boxabar turar, kun tartibi tig'iz va bandligiga qaramay, ezguliklarga vaqt ajratar, hafsala qilardi.

Har yili poytaxtdan to'y mavsumini yakun-lab kelganida (odatda aksariyat Ramazon oyi oldidan) mashinasi yukxonasiga o'zi bil-gan nochor oilalarga, kamxarj xonadonlar-ga, yaqinlariga, ustoz va shogirdlarga qa-riyb bir oy — Ramazonga yetadigan qozon qaynagulik bozor-o'charni tashkillashtirib, tarqatganiga guvoh bo'lganman. Qish fasli ostonasida yigirma-o'ttiz juft kalish, hassa, choponlarni tanish masjid imomlari orqali ehson sohibini bildirmaslik sharti bilan eh-tiyojmand kimsalarga hadyalar ulashgan-dan ham voqifman.

Kamoliddin aka kamtarinlikda na-muna ediki, shuhrat cho'qqisida turgan

“SHOGIRD TARBIIYALASHDA HAM U KISHI IBRAT NAMUNASI EDI. U USTOZLIK QILGAN ELGA MANZUR IQTIDORLARNI SANAB ADOG'IGA YETISH MUSHKUL. ZERO, YUQORIDA TA'KIDLAGANIMIZDEK, “SHOGIRDLAR KAMOLI — USTOZLAR JAMOLI”. O'G'LI HUSANBOY RAHIMOVNING HOZIRDA OTA KASBINI DADIL DAVOM ETTIRAYOTGANI OT IZINI TOY BOSISHIGA YAQQOL DALOLATDIR.

pallalarda ham birovga kalondimog'lik yoki bepandlik qilganini sezmaganimiz, desam muqobilag'a emas. Har gal Kamoliddin aka haqida o'ylaganda va u bilan suh-bat qurganimda "Buyuklik — oddiylikda", degan hikmat yodimga tushaveradi. Xalq shoiri Erkin Vohidov choynak va piyola manzarasi ifodalangan "Kamtarlik" she'ri-ni xuddi Kamoliddin akaga atab yozgan-day tuyulaveradi.

Darhaqiqat, Kamoliddin aka odamiy-lik naqshini edi. Odamga botadigan biror xatti-harakatini, ochig'i, payqamagan-miz. "Beayb — Parvardigor", deydlar. Kamoliddin akaning fe'lida kimlardir ayb, kamchilik sanaganini ham, ashaddiy mux-lisi bo'lganimizdanmi, biz uchun fazilat-

dek edi. Shunday o'g'a cho'markanman, ko'nglimdan sururli fikrlar kechadi. Bashar-ti, oilada, jamoada, mahalla-ko'ya, qarindosh-urug'lar, yaqin-yiroqlar orasida, jami-yatda haddini, bosar-tusarini bilib, o'ziga gard yuqtirmagan ijodkorning shaxsiy xis-latlari uchun unvon yoki mukofot joriy etilsa, unga, hech shubhasiz, ustoz Kamoliddin aka Rahimov muyassar bo'lishiga imo-nim komil. Zero, hofizga davlat mukofot-lari — "El-yurt hurmati" va vafotidan so'ng "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni beril-gani ham bejiz emas, albatta.

Yaxshilarga yondashgan inson

San'atkorlar to'g'risida gap ochilgan-da, o'ziga xos maktab yaratgan, deyi-sh rasm bo'lgan. Kamoliddin Rahimov har bir

qlari chertayotgani sinchkov muxlislarga ayon bo'ladiki, noyob hodisadan hangu mang turardiki. Alloma navozanda Turg'un Alimov "Torni ozar ustasi Bagatir yasasin-u, o'zbek hofizi Kamoliddin sayrat-sin-da" degani, Bagatirning Bokudagi ustaxonasida O'zbekiston xalq artisti Ka-moliddin Rahimovning tor ushlab turgan portreti ilib qo'yilgani fikrimizga dalildir. O'sha dargohda hofizning "Ko'chamdan jonon o'tganda" qo'shig'ining boshlanishi-dagi nolaga quloq solgan usta Bagatir an-samblda tanburni kim chalganiga qiziqqani, vaholanki, ansambli va tanbur ham emas, fig'oniy nolalarni Kamoliddin Rahimov usta Bagatir yasagan torda chalganini eshitgan-ida, ishonimgan ham rost.

Ma'lumki, Kamoliddin Rahimovning usta Olim Komilov, Qahramon Dadayev, Tojiali Olimov kabi doirachilarga rag'batidan o'z ijodini doira chalishtan boshlagan. U o'z

Ahmadjon kabi namanganlik hamyurtlari ham o'z she'rlari bilan uning qo'shiqlariga qanot bag'ishlagan. Nokamtarlikka yo'y-mangu, "Yodimda qoldi", "Ovvara qilma", "Men sizni tushimda ko'rib turaman", "Ota-jon", "Qo'msash", "Yaxshilarga yondashib", "El ichra nazar topdim" va boshqa o'nlab ijodiy namunalarimni zabardast xonandam-iz ijro etganidan o'zimni baxtiyor his qila-man. Shunga suyanib, baralla aytish mum-kiniki, Kamoliddin Rahimov Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyat, shuningdek, Namangan shoirla-rining beg'araz targ'ibchisi edi.

Uchinchidan, faoliyatini Kamoliddin aka bilan boshlagan aktyor va xonanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ar-tist Turdali Saydullayev ham jo'rovozlik-da unga uzoq yillar yelkadosh bo'lganini hamkorlikda yaratgan qator-qator dilrabo qo'shiqlar haqqi unutmaymiz. Jo'rovoz-likdagi qo'shiqlar o'zbek radiosi oltin fon-didagi bebaho durdonalardan hisoblanadi. Kamoliddin Rahimov qo'shiqlarini magnit tasmlariga muhrashda zahmatkashlar — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madani-yat xodimi Nuriddin Aminjonov, ovoz soz-lovchilar Zayniddin Jo'rayev, Yusufjon Umaraliyevning xizmatlari tahsinga sazovor.

To'rtinchidan, shogird tarbiyalashda ham u kishi ibrat namunasi edi. U ustozlik qilgan elga manzur iqtidorlarni sanab adog'iga yetish mushkul. Zero, yuqorida ta'kidla-ganimizdek, "Shogirdlar kamoli — ustozlar jamoli". O'g'li Husanboy Rahimovning ho-zirda ota kasbini dadil davom ettirayotgani ot izini toy bosishiga yaqqol dalolatdir.

Buyuklikka eltgan omillar

Kamoliddin Rahimovning kamolotga eri-shishida janjon azim Toshkent muhitingi, u yerdagi do'stlarining, san'atimiz peshvo-larining, muxlislarining, Shukur ota Rahma-tov, usta Nosirxon Tursunov, Abdurazzoq Nabiyev, Hamidjon Tohirjonov, o'z mualliflik ko'rsatuvlarida, xususan, "Diydor shirin"da Kamoliddin Rahimov siymosiga ixlosmand-lik bilan qaraydigan mohir suxandon Mus-limbek Yo'ldoshev va boshqalarning hissasi o'chmasdir.

Kamoliddin aka biror to'y yoki ma-ro-simda marhum ijodkorlar qo'shig'ini aytib, shuning ortidan besh-to'rt so'm topgan bo'lsa, buni qariz hisoblar, xoliroq lahzalarda o'shalar haqqiga duoi fотиha o'qib, go'yo qarzdin o'zini forig' qilar edi. Kamoliddin akaning qaddu bastida salobat, chehrasida nur, qalbidan mehri, barmoqlarida sehir, qa-damida baraka barq urib turgani shundan-dir, ehtimol.

Namangan dovrug'in yoygan qo'shiqlar va dunyo bo'ylab yangragan ovoz

Qobiliyat egalari san'atga ikki xil yo'sin-da kirib keladi. Birinchisi yonib, ikkinchisi tutab. Yonib kirib kelganlari mangu yonadi, tevarakka ham qo'r va tarovat bag'ishlaydi. Ikkinchi toifalar esa faqat tutaydi. Biz hikoya qilayotgan qahramonimiz birinchi toifaga mansub, yonib, yuraklarga taft baxsh eta olgani kundef ravshan.

Oltmishinchi yillar oxirlarida o'zi-ning "Hargiz", "Qoshiga o'sma qo'yib", "Sevasanmu", "Sevganing rostmu"



davrinin qo'shiqchilari usta Nuri qori, Sot-voldi Yo'ldoshev, Abdurashid Vohidovlar-ga doira chalgan. Doirachilikdan yetishib chiqqani uchunmi, hofizlar ichida eng usu-li bisyorlikda, tag'in murakkab va teskari usullarda qo'shiqlar yaratga olish. Xorazm suvoralarini ham bemalol uddalashda Ka-moliddin akaga yetadigan sanoqli.

Ardoqli hofiz yorqin iste'dodining no-dir mahsullari — "Ul yora ishonmaydur", "Sog'insam otajonim", "Ko'chamdan jonon o'tganda" kabi ashulalarni mashhur Jo'ra-bek Murodov va Sherali Jo'rayev ham sevir ijro etgani uning iste'dodiga bo'lgan hurmat va e'tirofning go'zal javobidir. Kamoliddin akaning nuri qismatiga xos yana to'rtta muhim jihatta to'xtalmasam mushohada-larim bamisoli kemptik qoladiganday.

Birinchidan, o'zi bastalagan "Junun vovdiy", "Sevasanmu?", "Kutarman zor" kabi o'nlab qo'shiqlarini Kamoliddin aka-ga tortiq qilgan buyuk bastakor Saidxo'ja Xoldorxo'jayevning ham hofiz kamolotida mislsiz ulushi bor.

Ikkinchidan, Kamoliddin Rahimovbop g'azallari bilan Fuzuliy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Maxtumquliy, Erkin Vohi-dov, Abdulla Oripov hamda Chustiy, Sho-xiy, Rashid Xalil, Nuriddin Boboxo'jayev, Robiddin Isoqov, Qurbonoy Ubaydullayeva, Hakimjon Tursunov, Mamajon Parpiy, Yoqub

qo'shiqlari bilan muxlislar yuragini muhab-bat vasfi bilan alangalatgani otashin ilhom, ulkan iste'dod, zahmatli mehnat hosila-sidir. Bil'aks, hofiz kuydan-kuyga, xonish-dan-xonishga, kundand-kunga, yildan-yilga, konsertdan-konsertga to'xtamay o'sdi, nu-fuzi oshdi. Konsert dasturlari gavjumlikda olqishu qarsaklar og'ushida o'tdi.

Gul shahri bulbuli repertuarining muqim — "Namangandan ketar bo'lsam", "Namangan tanovori", "Shahri Namangan", "Namangan manzumasi"dek joziba-dor qo'shiqlari dillardagi g'urur, faxr-iftixor tuyg'usini jo'shtirgani bilan qimmatli.

Lug'atimizda "nazarkarda" degan so'z uchraydi. Bu e'tiborga tushgan, ulug'lar nazaridan o'tganlarga ishlatiladigan pur-ma'no so'zlardan. Kamoliddin Rahimov, hech istisnosiz, ana shunday rutbaga erish-ganlardan edi. Bu nisbatni olishda ham sa-lohiyat asqatganiga zarracha gumon yo'q. Hofizning Namangan tog'lar-yu bog'lari, dilbar go'shalaridan ilhomlanib yaratgan "Ko'chamdan jonon o'tganda", "Qoshingiz qarosimu", "La'lixon", "Goh-goh ko'rinib", "Nargiz" kabi yuzlab harorati qo'shiqlari Namangan dovrug'ini olamga yoygani inkor etilmas aksiomadir.

Hofiz vovdiy, O'zbekiston yoki sobiq ittifoq miqyosida, qo'shni respublikalar-dan tashqari Yaponiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Afg'oniston kabi xorijiy davlat-larga qilgan gastrol safarlari mobaynida jahonda yangragan ovozi millatimiz va elimizga nufuz keltirgan. Madaniy sayo-hatlarga tayyorgarlik uchun mo'ljallangan ajnabi tillardagi ashulalari ham uning bi-sotini bezaydi.

Kelajak avlod uchun o'rnak

Shu yil boshida viloyat musiqli drama teatrida marhum Kamoliddin Rahimov ta-valludiga 80 yil to'lishi munosabati bilan xotira kechasi tashkil etilgani, ma'naviy boy hofizning ibratli hayoti va ijodi jamlangan kitob ham nashr qilingani vujudimni haya-jonga chulg'adi.

— Mening Matlubba bo'lishimda Ka-moliddin Rahimovning beqiyos xizmatlari bor, — deydi O'zbekiston xalq artisti Matlubba Dadaboyeva. — Olim bo'lish, katta pog'o-nalarga chiqish mumkin, lekin ustozimizdek hassos inson yo'q. Yosh san'atkorlarga ham qo'llari ko'ksida salom berardi, duo qilardi. Menga ham duolarini olish nasib etgan. Odob, axloq, e'tiqodga chaqiradi-gan va asrlarga tatiydigan asarlarini biz ko'zimizga surtamiz.

Tadbirda Kamoliddin Rahimov qo'shiqla-rini idzoshlari, taniqli xonandalar talqin etishdi. Hayrattanarlisi, bu qo'shiqlarni Farg'ona, Buxoro, Xorazm yo'lida kuylay-diganlar ijro qilsa-da, hammasi aynan Ka-moliddin Rahimov qochirilmilari va dardli nolalarini chiqarib kuyladi.

— Kamoliddin akaning novatorligi shun-daki, u umrbodiy asarlar yaratdi, o'zbek musiqa merosida yangi sahifa ochdi. U-zbek tozning uslubidagi taronalar, maxsus tor chertish qirralari hozirgilar uchun dasturla-mal, kelajak avlod uchun o'rnamdir, — dey-di "Maqom san'ati" markazi bosh direktori, professor Soyibjon Begmatov.

Istardiki, o'zbek qo'shiqchiligining be-takror namoyandasi, O'zbekiston xalq ar-tisti, "El-yurt hurmati" va "Fidokorona xiz-matlari uchun" ordenlari sohibi Kamoliddin Rahimov xotirasini abadiylashtirish, uning nomini Namangan ixtisoslashtirilgan mu-siqa va san'at maktabiga qo'yish, mahobatli maydonda haykal-bo'yustini o'rnatish, muzey va ijod maktabini ochish, o'lmas asarlarini yosh avlodga o'rgatish bo'yicha ilmiy tad-qiqotlar olib borish, metodik qo'llanmalar yaratish fursati keldi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
41011 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Abdurauof Qorjovov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05